Arterial gipertenziya va 2-tur qandli diabet yurak-qon tomir kasalliklarining rivojlanishiga ta’sir qiluvchi muhim klinik omillar hisoblanadi [1]. Xalqaro epidemiologik ma’lumotlarga ko‘ra, har ikki kasallik dunyo miqyosida

keng tarqalgan bo‘lib, ko‘p hollarda birgalikda uchraydi [3,4]. QD2 mavjud AG bilan og‘rigan bemorlarda qon bosimini maqsadli darajada nazorat qilish qo‘shimcha qiyinchiliklar tug‘diradi, yurak-qon tomir xavfi esa yuqoriligicha saqlanadi [2]. Ushbu kasalliklarning birgalikda uchrashi gemodinamik yuklama, metabolik buzilishlar va miokardning struktur-funksional o‘zgarishlari bilan kechishi mumkin [5,6]. Shu sababli AG va QD2 mavjud bemorlarda faqat klinik (ofis) arterial qon bosimi ko‘rsatkichlarini baholash bilan cheklanmasdan, qon bosimining sutkalik dinamikasi va yurakning morfofunksional holatini ham o‘rganish muhimdir. Sutkalik arterial qon bosimi monitoringi (SQBM) qon bosimining kunduzgi va tungi ko‘rsatkichlarini, uning variabelligini hamda tungi pasayish darajasini aniqlash imkonini beradi. SQBM ko‘rsatkichlari ofis o‘lchovlariga nisbatan yurak-qon tomir hodisalari bilan kuchliroq bog‘liq bo‘lib, tungi qon bosimi darajasi va uning sutkalik ritmi buzilishining yurak yetishmovchiligi xavfi bilan aloqadorligi ko‘rsatilgan [7]. Qon bosimining tungi fiziologik pasayishi buzilgan bemorlarda gemodinamik yuklama sutka davomida yuqoriligicha saqlanishi mumkin [7,8]. Shuning uchun «non-dipper» va «night-peaker» profillarini aniqlash gipertenziyaning klinik xususiyatlarini chuqurroq baholashga yordam beradi.

Arterial gipertenziya va QD2 sharoitida chap qorincha gipertrofiyasi va remodellanishining rivojlanishi alohida ahamiyatga ega [5]. Chap qorincha miokardi massasining ortishi, uning geometrik tuzilishining o‘zgarishi va diastolik funksiyaning buzilishi yurakning struktur-funksional holatidagi o‘zgarishlarni aks ettiradi. QD2 sharoitida insulin rezistentligi, giperglikemiya, oksidlovchi stress va yallig‘lanish miokard fibroziga hamda devor qattiqligining ortishiga olib kelishi mumkin [6]. So‘nggi yillarda epikardial yog‘ to‘qimasining qalinligi ham QD2 va metabolik buzilishlar sharoitida miokardga ta’sir qiluvchi qo‘shimcha ko‘rsatkich sifatida o‘rganilmoqda [9]. Exokardiografiya ushbu o‘zgarishlarni aniqlash va chap qorincha geometriyasini baholashda asosiy instrumental usullardan biri hisoblanadi [10]. NT-proBNP miokard devoridagi zo‘riqish bilan bog‘liq biomarker bo‘lib, yurak yetishmovchiligini tashxislash va prognozni baholashda qo‘llaniladi [11,12]. Qandli diabetda yurak yetishmovchiligi yetarlicha tashxislanmaydigan asorat sifatida qayd etiladi, uning tarqalganligining diabetli shaxslarda 22% gacha yetishi keltirilgan [13]. Yurak yetishmovchiligi belgilari bo‘lmagan bemorlarda NT-proBNP kvartillari ortishi bilan chap qorincha gipertrofiyasi xavfining ham ortishi ko‘rsatilgan [14], saqlangan otish fraksiyali yurak yetishmovchiligini tashxislash algoritmlarida esa bu biomarker asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi [15]. Biroq NT-proBNP darajasini exokardiografik ko‘rsatkichlar va sutkalik qon bosimi profili bilan birgalikda baholash klinik jihatdan muhimdir. Shunday qilib, AG va QD2 birgalikda mavjud bemorlarda qon bosimining sutkalik profili, chap qorincha remodellanishi va NT-proBNP ko‘rsatkichlarini yagona tadqiqot doirasida qiyosiy baholash diabetning gemodinamik va struktur-funksional o‘zgarishlarga qo‘shgan hissasini aniqlashga hamda yurak-qon tomir xavfini baholashga yordam berishi mumkin. Tadqiqot maqsadi — AG bilan og‘rigan bemorlarda QD2 mavjudligiga qarab SQBM ko‘rsatkichlari, chap qorinchaning struktur-funksional holati va NT-proBNP darajasidagi farqlarni aniqlash.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Arterial gipertenziya va qandli diabet hozirgi davrda eng ko‘p tarqalgan surunkali kasalliklar qatoriga kiradi. IDF Diabetes Atlas (10-nashr) ma’lumotlariga ko‘ra, 2021-yilda dunyo bo‘yicha 20–79 yoshdagi taxminan 537 mln kishi qandli diabet bilan yashagan (10,5%), 2045-yilga borib bu ko‘rsatkich 783 millionga yetishi bashorat qilingan [3]. NCD-RisC tahliliga ko‘ra, 30–79 yoshdagi gipertenziyali shaxslar soni 1990–2019-yillarda qariyb ikki baravar oshib, 1,28 mlrd atrofiga yetgan [4]. Qandli diabet bilan og‘rigan bemorlarda yurak-qon tomir kasalliklari o‘lim va nogironlikning yetakchi sababi bo‘lib qolmoqda, AG esa xavfni yanada oshiruvchi asosiy omil sifatida qaraladi. Shu sababli ESC 2023 va ESH 2023 yo‘riqnomalarida ushbu bemorlarda qon bosimini nazorat qilish va yurak-qon tomir xavfini baholash zarurligi alohida ta’kidlangan [1,2]. AG va QD2ning birgalikda uchrashini umumiy patogenetik mexanizmlar tushuntiradi: insulin rezistentligi, giperinsulinemiya, renin-angiotenzin-aldosteron va simpatik nerv tizimlarining faollashuvi, endotelial disfunksiya, oksidlovchi stress va surunkali yallig‘lanish [5]. Bu mexanizmlar tomir devori qattiqligini oshiradi, qon bosimining ko‘tarilishiga va miokardga yuklamaning kuchayishiga olib keladi. Diabetik kardiomiopatiya konsepsiyasiga ko‘ra, giperglikemiya, lipotoksiklik, mitoxondrial disfunksiya va miokard fibrozi yurak yetishmovchiligigacha olib keluvchi diastolik disfunksiya rivojlanishiga sabab bo‘lishi mumkin [6].

Qon bosimini baholashda sutkalik monitoring ofis o‘lchovlariga nisbatan qo‘shimcha axborot beradi. ESH 2023 yo‘riqnomasi AGni tashxislash va davolash samaradorligini baholashda ambulator monitoringdan, shu jumladan tungi qon bosimi ko‘rsatkichlaridan foydalanishni tavsiya etadi [2]. Tungi gipertenziya va qon bosimining tunda yetarli pasaymasligining nishon-a’zolar shikastlanishi va yurak-qon tomir hodisalari bilan bog‘liq ekanligi ko‘rsatilgan [8]. Yaponiyada amaliyotchi shifokorlar ishtirokida o‘tkazilgan milliy JAMP tadqiqotida tungi qon bosimi fenotiplari tahlil qilinib, tungi qon bosimining turg‘un yuqoriligi va tunda ortishi bilan kechuvchi profillarning yurak-qon tomir hodisalari, shu jumladan yurak yetishmovchiligi xavfi bilan bog‘liqligi aniqlangan [7]. Chap qorincha gipertrofiyasi va remodellanishi AGning eng muhim nishon-a’zo shikastlanishlaridan biri bo‘lib, diabet

qo‘shilganda struktur o‘zgarishlar bilan birga diastolik disfunksiya ham rivojlanadi [6]. Struktur va funksional ko‘rsatkichlarni (chap qorincha devorlari qalinligi, miokard massasi va indeksi, chap bo‘lmacha hajmi, transmitral oqim va to‘qima Doppler ko‘rsatkichlari) standartlashtirilgan usulda baholash ASE tavsiyalarida keltirilgan [10]. So‘nggi yillarda exokardiografiya orqali o‘lchanadigan epikardial yog‘ to‘qimasi qalinligi miokardga parakrin va mexanik ta’sir ko‘rsatuvchi, kardiometabolik xavf bilan bog‘liq qo‘shimcha ko‘rsatkich sifatida o‘rganilmoqda [9].

NT-proBNP qorinchalar devorining cho‘zilishi va bosim-hajm yuklamasiga javoban ajraladi; ESC 2021 yo‘riqnomasida noo‘tkir sharoitda yurak yetishmovchiligini istisno qilish uchun 125 pg/ml chegarasi qo‘llaniladi [11]. AHA 2022 yo‘riqnomasida natriyuretik peptidlarning yurak yetishmovchiligi rivojlanish xavfi ostidagi bemorlarda skrining va prognozni baholash uchun ishlatilishi mumkinligi qayd etilgan [12]. ADA konsensus hisobotida yurak yetishmovchiligi diabet bilan og‘rigan bemorlarda yetarlicha tashxislanmaydigan asorat sifatida ko‘rsatilib, uni biomarkerlar yordamida erta aniqlashning ahamiyati ta’kidlangan [13]. Yurak yetishmovchiligi belgilari bo‘lmagan bemorlarda NT-proBNP darajasining chap qorincha gipertrofiyasi xavfi bilan bog‘liq ekanligi ko‘rsatilgan [14]. Saqlangan otish fraksiyali yurak yetishmovchiligini tashxislashda HFA-PEFF algoritmi NT-proBNP bilan bir qatorda exokardiografik ko‘rsatkichlarni (chap bo‘lmacha hajmi, E/e′, chap qorincha miokard massasi indeksi va nisbiy devor qalinligi) birgalikda baholashni taklif etadi [15]. Shunday qilib, ko‘rib chiqilgan manbalarda sutkalik qon bosimi ritmi, chap qorinchaning struktur-funksional o‘zgarishlari, epikardial yog‘ to‘qimasi va NT-proBNP diabet hamda AG sharoitida asosan alohida baholanadi. AG va QD2 birgalikda mavjud bemorlarda ushbu ko‘rsatkichlarni yagona tadqiqot doirasida va diabetsiz AG bilan og‘rigan bemorlar bilan qiyoslab o‘rganish mazkur tadqiqotning asosini tashkil etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotga jami 200 nafar bemor kiritildi. Bemorlar QD2 mavjudligiga ko‘ra ikki guruhga ajratildi: 1-guruh — AG va QD2 mavjud bemorlar (100 nafar); 2-guruh — AG mavjud, QD2 bo‘lmagan bemorlar (100 nafar). Tadqiqotga AGning I–III darajasi, yurak ishemik kasalligi (YUIK) va zo‘riqish stenokardiyasining I–II funksional sinfi mavjud, chap qorinchaning otish fraksiyasi 50%dan yuqori bo‘lgan hamda surunkali yurak yetishmovchiligining NYHA bo‘yicha I–II funksional sinfiga mansub bemorlar kiritildi. 1-tur qandli diabet, simptomatik arterial gipertenziya, zo‘riqish stenokardiyasining III–IV funksional sinfi, NYHA bo‘yicha III–IV sinf surunkali yurak yetishmovchiligi, yurak ritmi buzilishlari, nostabil stenokardiya, anamnezida miokard infarkti yoki revaskulyarizatsiya operatsiyasi bo‘lgan bemorlar tadqiqotdan chiqarildi. Shuningdek, surunkali buyrak kasalligining 3B–5-bosqichlari va tug‘ma yoki orttirilgan yurak nuqsonlari mavjud bemorlar kiritilmadi. Barcha bemorlarda ofis sistolik va diastolik arterial qon bosimi, tana vazni, bo‘y, tana massasi indeksi (TMI) va bel aylanasi baholandi. Laborator tekshiruvlar doirasida lipid spektri, kreatinin, albuminuriya, hisoblangan koptokchalar filtratsiyasi tezligi (hKFT), siydik kislotasi va NT-proBNP ko‘rsatkichlari o‘rganildi.

Asbobiy tekshiruvlar elektrokardiografiya, sutkalik arterial qon bosimi monitoringi, exokardiografiya va uyqu arteriyalarining ultratovush tekshiruvini o‘z ichiga oldi. SQBM natijalari asosida o‘rtacha sutkalik, kunduzgi va tungi sistolik (SAB) hamda diastolik (DAB) arterial qon bosimi, puls bosimi va qon bosimi variabelligi baholandi. Tungi pasayish profili «dipper», «non-dipper», «night-peaker» va «over-dipper» turlariga ajratildi. Exokardiografiya orqali chap qorinchaning sistolik va diastolik funksiyasi, chap qorincha miokardi massasi, miokard massasi indeksi va remodellanish turlari baholandi. NT-proBNP darajasi guruhlar hamda chap qorincha remodellanishi turlari bo‘yicha qiyoslandi. Statistik tahlil SPSS 27.0 dasturiy paketi yordamida o‘tkazildi. Natijalar o‘rganilgan ma’lumotlarning xususiyatiga qarab o‘rtacha qiymat va standart og‘ish yoki mediana va kvartillararo oraliq ko‘rinishida keltirildi. Farqlar $p<0,05$ bo‘lganda statistik ahamiyatli deb hisoblandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1-jadval. Bemorlarning klinik xarakteristikasi

Ko‘rsatkichlar	AG+QD2 n=100	AG+QDsiz n=100	p
O‘rtacha yosh, yil	64,17±8,8	63,51±9,5	p=0,06
AG davomiyligi, yil	9,78±5,7	8,58±5,6	p=0,12
QD davomiyligi, yil	7,9±5,6	0	—
YUIK davomiyligi, yil	7,1±4,9	6,76±4,3	p=0,1
SAB, mm sim. ust.	150,4±7,5	140,4±9,1	p=0,032
DAB, mm sim. ust.	91,3±6,4	82,4±8,04	p=0,045
TMI, kg/m^2	33,04±5,9	31,7±6,02	p=0,13
Bel aylanasi, sm	109,3±13,5	104,2±17,4	p=0,023

Tadqiqot guruhlaridagi bemorlarning o‘rtacha yoshi o‘zaro yaqin bo‘ldi: QD2 mavjud guruhda 64,17±8,8 yosh, QD2 bo‘lmagan guruhda 63,51±9,5 yosh. AG davomiyligi mos ravishda 9,78±5,7 va 8,58±5,6 yilni tashkil qildi. Ushbu ko‘rsatkichlar bo‘yicha statistik ahamiyatli farq qayd etilmadi. QD2 mavjud guruhda ofis SAB 150,4±7,5 mm simob ustunini, QD2 bo‘lmagan guruhda esa 140,4±9,1 mm simob ustunini tashkil etdi (p=0,032). DAB ko‘rsatkichi ham birinchi guruhda yuqoriroq bo‘ldi: 91,3±6,4 ga qarshi 82,4±8,04 mm simob ustuni (p=0,045). Bel aylanasi QD2 mavjud bemorlarda 109,3±13,5 sm, QD2 bo‘lmagan bemorlarda 104,2±17,4 sm bo‘lib, guruhlararo farq statistik ahamiyatga ega edi (p=0,023). TMI bo‘yicha farq statistik ahamiyatli bo‘lmadi: 33,04±5,9 va 31,7±6,02 kg/m² (p=0,13) (1-jadval). SQBM natijalari QD2 mavjud bemorlarda arterial qon bosimining sutka davomida yuqoriroq bo‘lishini ko‘rsatdi. O‘rtacha sutkalik SAB birinchi guruhda 157,14±6,6 mm simob ustunini, ikkinchi guruhda 141,01±15,4 mm simob ustunini tashkil etdi (p=0,002). O‘rtacha sutkalik DAB mos ravishda 94,73±8,6 va 87,7±9,9 mm simob ustuni bo‘ldi (p=0,001).

O‘rtacha sutkalik puls bosimi QD2 mavjud guruhda 65,4±10,1 mm simob ustunini, QD2 bo‘lmagan guruhda 51,29±10,6 mm simob ustunini tashkil etdi (p=0,002). Kunduzgi SAB 155,9±7,8 va 139,07±14,6 mm simob ustuni (p=0,003), kunduzgi DAB esa 88,6±9,5 va 75,16±9,5 mm simob ustuni bo‘ldi (p=0,001). Tungi SAB va DAB ham QD2 mavjud guruhda yuqoriroq qayd etildi: mos ravishda 150,27±30,6 va 131,19±30,95 mm simob ustuni (p=0,0014), 92,18±19,3 va 78,8±18,7 mm simob ustuni (p=0,001). Qon bosimi variabelligi tahlilida kunduzgi DAB variabelligi birinchi guruhda 14,2±3,8 mm simob ustunini, ikkinchi guruhda 12,15±4,73 mm simob ustunini tashkil etdi (p=0,001). Tungi SAB variabelligi mos ravishda 13,17±4,3 va 11,3±5,06 mm simob ustuni (p=0,005), tungi DAB variabelligi esa 10,7±2,8 va 8,5±4,6 mm simob ustuni bo‘ldi (p=0,004). Kunduzgi SAB variabelligi bo‘yicha statistik ahamiyatli farq aniqlanmadi (14,64±3,9 va 14,2±6,04 mm simob ustuni; p=0,99).

2-jadval. Bemorlarda qon bosimi tungi pasayishi darajasining guruhlararo tavsifi

Ko‘rsatkichlar	AG+QD2 n=100	AG+QDsiz n=100	χ^2, p
SABning tungi pasayish darajasi, Me [Q1–Q3]	6,95[2,62-25,0]	5,35[-3,0-7,3]	p<0,001
“Dipper”, %	12	37	χ^2=16,8; p=0,001
“Non-dipper”, %	53	37	χ^2=5,17; p=0,023
“Night-peaker”, %	30	17	χ^2=4,7; p=0,031
“Over-dipper”, %	5	9	χ^2=1,2; p=0,26
DABning tungi pasayish darajasi, Me [Q1–Q3]	4,2[1,3-11,8]	3,1[-1,1-11,0]	p=0,112
“Dipper”, %	15	32	χ^2=8,04; p=0,005
“Non-dipper”, %	58	40	χ^2=4,5; p=0,036
“Night-peaker”, %	19	10	χ^2=3,3; p=0,07
“Over-dipper”, %	8	18	χ^2=4,4; p=0,036

Qon bosimining tungi pasayish profilini tahlil qilishda «dipper» turi QD2 bo‘lmagan bemorlarda ko‘proq uchradi. SAB bo‘yicha bu ko‘rsatkich 12% va 37% (χ^2=16,8; p=0,001), DAB bo‘yicha esa 15% va 32% (p=0,005) bo‘ldi. Aksincha, «non-dipper» profili QD2 mavjud guruhda ko‘proq qayd etildi: SAB bo‘yicha 53% va 37% (χ^2=5,17; p=0,023), DAB bo‘yicha 58% va 40% (χ^2=4,5; p=0,036). «Night-peaker» profili ham SAB bo‘yicha birinchi guruhda ko‘proq uchradi — 30% ga qarshi 17% (χ^2=4,7; p=0,031). DAB bo‘yicha esa farq statistik ahamiyatga ega bo‘lmadi (19% va 10%; p=0,07). «Over-dipper» profili SAB bo‘yicha guruhlar o‘rtasida farq qilmadi; DAB bo‘yicha ushbu tur QD2 bo‘lmagan guruhda ko‘proq kuzatildi (8% va 18%; p=0,036) (2-jadval).

3-jadval. AG bilan og‘rigan bemorlarda QD2 mavjudligiga qarab ExoKG ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	AG+QD2 n=100	AG+QDsiz n=100	p
ODO‘, sm	5,26±0,3	5,13±0,2	0,045
OSO‘, sm	3,55±0,3	3,36±0,25	0,038
QATQ, sm	1,23±0,06	1,16±0,11	0,041
CHQODQ, sm	1,22±0,8	1,15±0,12	0,03
ODH, ml	133,5±16,24	126,2±16,9	0,002
OSH, ml	53,2±11,01	46,8±8,1	0,001
CHQMM, g	264,5±36,8	234,3±45,7	0,001
CHQMMi, g/m² (semizliksiz)	166,53±27,06	154,89±35,9	0,001
CHQMMi, g/m^{2,7} (semizlik bilan)	71,01±13,7	64,09±14,8	0,001

Zarb hajmi, ml	80,3±10,9	79,45±12,1	0,58
OF, %	60,2±5,87	62,9±4,1	0,001
Chap bo‘lmacha hajm indeksi, ml/m²	28,01±4,3	22,7±6,0	0,001
E cho‘qqi tezligi, m/s	0,6±0,08	0,72±0,1	0,03
A cho‘qqi tezligi, m/s	0,79±0,11	0,76±0,1	0,05
E/A nisbati	0,8±0,5	0,99±0,39	0,005
e′ cho‘qqi tezligi, sm/s	7,08±1,1	10,1±1,1	<0,001
E/e′ nisbati	7,9±1,7	7,2±2,4	0,015
Epikardial yog‘ qalinligi, mm	6,81±1,54	5,66±1,04	0,001

Izoh: ODO‘ — chap qorinchaning oxirgi diastolik o‘lchami; OSO‘ — chap qorinchaning oxirgi sistolik o‘lchami; QATQ — qorinchalararo to‘siq qalinligi; CHQODQ — chap qorincha orqa devori qalinligi; ODH — oxirgi diastolik hajm; OSH — oxirgi sistolik hajm; CHQMM — chap qorincha miokardi massasi; CHQMMi — chap qorincha miokardi massasi indeksi; OF — otish fraksiyasi; E va A — transmitral qon oqimining erta va kech diastolik to‘lish cho‘qqi tezliklari; e' — mitral fibroz halqa harakatining erta diastolik tezligi (to‘qima dopplerografiyasi).

Exokardiografik tahlilda QD2 mavjud bemorlarda chap qorinchaning strukturaviy o‘zgarishlari yaqqolroq ifodalangani kuzatildi. Chap qorincha otish fraksiyasi har ikki guruhda saqlangan bo‘lsa-da, QD2 mavjud guruhda ushbu ko‘rsatkich pastroq bo‘ldi: 60,2±5,87% va 62,9±4,1% (p=0,001). Chap qorincha miokardi massasi QD2 mavjud bemorlarda 264,5±36,8 g, QD2 bo‘lmagan bemorlarda 234,3±45,7 g ni tashkil etdi (p=0,001). Chap qorincha miokardi massasi indeksi ham birinchi guruhda yuqoriroq bo‘ldi: semizliksiz bemorlarda 166,53±27,06 va 154,89±35,9 g/m² (p=0,001). Semizlik mavjud bemorlarda bo‘yining 2,7-darajasiga nisbatan hisoblangan indeks ham birinchi guruhda yuqoriroq qayd etildi.

Diastolik funksiyani baholashda E cho‘qqi tezligi QD2 mavjud guruhda 0,6±0,08 m/s, ikkinchi guruhda 0,72±0,1 m/s bo‘ldi (p=0,03). E/A nisbati mos ravishda 0,8±0,5 va 0,99±0,39 ni tashkil etdi (p=0,005). e′ cho‘qqi tezligi birinchi guruhda 7,08±1,1 sm/s, ikkinchi guruhda 10,1±1,1 sm/s bo‘lib, farq yuqori statistik ahamiyatga ega edi (p<0,001). E/e′ nisbati esa 7,9±1,7 va 7,2±2,4 ni tashkil etdi (p=0,015). Epikardial yog‘ qalinligi ham QD2 mavjud bemorlarda yuqoriroq bo‘ldi: 6,81±1,54 mm va 5,66±1,04 mm (p=0,001) (3-jadval). NT-proBNP miqdorining medianasi QD2 mavjud bemorlarda 85,0 [62,25–123,0] pg/ml, QD2 bo‘lmagan bemorlarda esa 56,75 [28,0–110,0] pg/ml bo‘ldi (p<0,001). Demak, chap qorincha otish fraksiyasi saqlangan bemorlarda ham QD2 mavjudligi NT-proBNP darajasining yuqoriroq bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘ldi. NT-proBNP ko‘rsatkichi chap qorincha remodellanish turlari bo‘yicha guruhlararo taqqoslanganda, barcha 4 ta remodellanish turida ham QD2 mavjud bo‘lgan guruhda yuqoriroq ko‘rsatkichlar olindi (4-jadval).

4-jadval. Chap qorincha remodellanish turlariga ko‘ra NT-proBNP ko‘rsatkichlari

NT-proBNP, pg/ml	Guruhlar	Normal geometriya	Konsentrik remodellanish	Konsentrik gipertrofiya	Ekssentrik gipertrofiya
	AG+QD2 n=100	54,0[33-73,0]	80,0[65-105,0]	98,0[67,75-109,25]	120,0[101,5-123,0]
	AG+QDsiz n=100	41,0[36,2-51,0]	72,0[59-95,0]	88,0[58,75-105,5]	101,0[95,0-112,0]
	p	p=0,05	p=0,049	p=0,048	p=0,001

Chap qorincha gipertrofiyasi mavjud bemorlarda NT-proBNP miqdori QD2 mavjud guruhda 85 [61,3–123,0] pg/ml, QD2 bo‘lmagan guruhda 67,0 [28,7–111,7] pg/ml bo‘lib, guruhlararo farq statistik ahamiyatli edi (p=0,001). Biroq chap qorincha gipertrofiyasi bo‘lmagan bemorlar bo‘yicha keltirilgan ma’lumotlarda guruhlararo farq statistik ahamiyatli emas edi (p=0,3). Chap qorincha remodellanishining turlari bo‘yicha tahlilda NT-proBNP darajasi har ikki guruhda normal geometriyadan konsentrik remodellanish va gipertrofiya turlariga o‘tganda ortish tendensiyasini namoyon qildi. Eng yuqori ko‘rsatkichlar ekssentrik gipertrofiya guruhida kuzatildi. QD2 mavjud guruhda NT-proBNP ko‘rsatkichlari barcha remodellanish turlarida yuqoriroq bo‘ldi. Guruhlararo farq konsentrik remodellanish (p=0,049), konsentrik gipertrofiya (p=0,048) va ekssentrik gipertrofiya (p=0,001) turlarida statistik ahamiyatli bo‘ldi, normal geometriyada esa statistik ahamiyat chegarasida qayd etildi (p=0,05). Tadqiqot natijalari AG va QD2ning birgalikda mavjudligi qon bosimining sutkalik profili, chap qorincha geometriyasi va NT-proBNP darajasidagi farqlar bilan bog‘liqligini ko‘rsatdi. QD2 mavjud bemorlarda ofis va sutkalik arterial qon bosimi yuqoriroq bo‘lib, ayniqsa tungi qon bosimi ko‘rsatkichlari sezilarli darajada baland bo‘ldi. Bu holat qon bosimini baholashda faqat kunduzgi yoki ofis ko‘rsatkichlariga tayanish yetarli bo‘lmasligi mumkinligini ko‘rsatadi [2]. Tungi qon bosimining yetarli darajada pasaymasligi va «night-peaker» profilining

ko‘proq uchrashi QD2 mavjud bemorlarda gemodinamik yuklamaning sutkaning tungi davrida ham saqlanishini ko‘rsatuvchi muhim natijalardir [8].

Biroq mazkur tadqiqot guruhlarida kuzatilgan farqlarning sababiy mexanizmlarini aniqlash uchun qo‘shimcha tahlillar o‘tkazish, jumladan, davolash rejimi, glikemik nazorat va buyrak funksiyasi ko‘rsatkichlarini hisobga olish zarur. Exokardiografik ma’lumotlar QD2 mavjud guruhda chap qorincha miokardi massasi va epikardial yog‘ qalinligining ortishi hamda diastolik funksiya ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi bilan tavsiflandi. Bu natijalar metabolik va gemodinamik omillarning yurakning struktur-funksional holati bilan birgalikda baholanishi kerakligini ta’kidlaydi [10]. Avvalgi tadqiqotlarda ham QD2 mavjud bemorlarda chap qorincha gipertrofiyasining keng tarqalgani, NT-proBNPning esa ushbu o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligi ko‘rsatilgan [14]. Shu bilan birga, NT-proBNPni chap qorincha gipertrofiyasini mustaqil aniqlovchi yagona test sifatida qarash to‘g‘ri emas; uning klinik ahamiyati exokardiografiya, klinik holat va buyrak funksiyasi kabi omillar bilan birgalikda baholanganda oshadi [15]. Bizning natijalarimizda NT-proBNP medianasi ikkala guruhda ham yurak yetishmovchiligini istisno qilishda qo‘llaniladigan 125 pg/ml chegarasidan past bo‘ldi, shu sababli kuzatilgan farqni klinik yurak yetishmovchiligidan ko‘ra subklinik darajadagi o‘zgarishlar bilan bog‘lash maqsadga muvofiq [11]. Mazkur tadqiqotda NT-proBNP darajasining QD2 mavjud bemorlarda yuqoriroq bo‘lgani va uning chap qorincha geometriyasi turlari bo‘yicha normal geometriyadan ekssentrik gipertrofiyagacha ortib borishi aniqlangani biomarkerni yurakning struktur-funksional holatini kompleks baholashda qo‘shimcha ko‘rsatkich sifatida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi: 1. AG va QD2 birgalikda kuzatilgan bemorlarda arterial qon bosimining yuqoriligi, uning variabelligining ortishi va tungi fiziologik pasayishining buzilishi sutkalik gemodinamik yuklamaning kuchayishini ko‘rsatib, qon bosimini nazorat qilishda SQBMdan foydalanish zarurligini asoslaydi. 2. AG va QD2 birgalikda kuzatilgan bemorlarda chap qorincha miokard massasi, chap bo‘lmacha hajmi va epikardial yog‘ qalinligining ortishi, shuningdek, otish fraksiyasi saqlangan holda diastolik funksiya ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi yurakning erta struktur-funksional remodellanishini ko‘rsatadi. 3. AG va QD2 birgalikda kuzatilgan bemorlarda NT-proBNP darajasining oshishi chap qorinchaning struktur-funksional o‘zgarishlari va subklinik miokard zo‘riqishini aks ettirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Marx N, Federici M, Schütt K, Müller-Wieland D, Ajjan RA, Antunes MJ, et al. 2023 ESC Guidelines for the management of cardiovascular disease in patients with diabetes. Eur Heart J. 2023;44(39):4043–4140. doi:10.1093/eurheartj/ehad192.
2. Mancia G, Kreutz R, Brunström M, Burnier M, Grassi G, Januszewicz A, et al. 2023 ESH Guidelines for the management of arterial hypertension. J Hypertens. 2023;41(12):1874–2071. doi:10.1097/HJH.0000000000003480.
3. Sun H, Saeedi P, Karuranga S, Pinkepank M, Ogurtsova K, Duncan BB, et al. IDF Diabetes Atlas: global, regional and country-level diabetes prevalence estimates for 2021 and projections for 2045. Diabetes Res Clin Pract. 2022;183:109119. doi:10.1016/j.diabres.2021.109119.
4. NCD Risk Factor Collaboration (NCD-RisC). Worldwide trends in hypertension prevalence and progress in treatment and control from 1990 to 2019: a pooled analysis of 1201 population-representative studies with 104 million participants. Lancet. 2021;398(10304):957–980. doi:10.1016/S0140-6736(21)01330-1.
5. Petrie JR, Guzik TJ, Touyz RM. Diabetes, hypertension, and cardiovascular disease: clinical insights and vascular mechanisms. Can J Cardiol. 2018;34(5):575–584. doi:10.1016/j.cjca.2017.12.005.
6. Jia G, Hill MA, Sowers JR. Diabetic cardiomyopathy: an update of mechanisms contributing to this clinical entity. Circ Res. 2018;122(4):624–638. doi:10.1161/CIRCRESAHA.117.311586.
7. Kario K, Hoshide S, Mizuno H, Kabutoya T, Nishizawa M, Yoshida T, et al. Nighttime blood pressure phenotype and cardiovascular prognosis: practitioner-based nationwide JAMP study. Circulation. 2020;142(19):1810–1820. doi:10.1161/CIRCULATIONAHA.120.049730.
8. Kario K. Nocturnal hypertension: new technology and evidence. Hypertension. 2018;71(6):997–1009. doi:10.1161/HYPERTENSIONAHA.118.10971.
9. Iacobellis G. Epicardial adipose tissue in contemporary cardiology. Nat Rev Cardiol. 2022;19(9):593–606. doi:10.1038/s41569-022-00679-9.
10. Mitchell C, Rahko PS, Blauwet LA, Canaday B, Finstuen JA, Foster MC, et al. Guidelines for performing a comprehensive transthoracic echocardiographic examination in adults: recommendations from the American Society of Echocardiography. J Am Soc Echocardiogr. 2019;32(1):1–64. doi:10.1016/j.echo.2018.06.004.

11. McDonagh TA, Metra M, Adamo M, Gardner RS, Baumbach A, Böhm M, et al. 2021 ESC Guidelines for the diagnosis and treatment of acute and chronic heart failure. Eur Heart J. 2021;42(36):3599–3726. doi:10.1093/eurheartj/ehab368.
12. Heidenreich PA, Bozkurt B, Aguilar D, Allen LA, Byun JJ, Colvin MM, et al. 2022 AHA/ACC/HFSA Guideline for the Management of Heart Failure. J Am Coll Cardiol. 2022;79(17):e263–e421. doi:10.1016/j.jacc.2021.12.012.
13. Pop-Busui R, Januzzi JL, Bruemmer D, Butalia S, Green JB, Horton WB, et al. Heart failure: an underappreciated complication of diabetes. A consensus report of the American Diabetes Association. Diabetes Care. 2022;45(7):1670–1690. doi:10.2337/dci22-0014.
14. Huang L, Huang L, Yu J, Wu X, Zhao J. An association between N-terminal pro-brain natriuretic protein level and risk of left ventricular hypertrophy in patients without heart failure. Exp Ther Med. 2020;19(5):3259–3266. doi:10.3892/etm.2020.8598.
15. Pieske B, Tschöpe C, de Boer RA, Fraser AG, Anker SD, Donal E, et al. How to diagnose heart failure with preserved ejection fraction: the HFA-PEFF diagnostic algorithm. Eur Heart J. 2019;40(40):3297–3317. doi:10.1093/eurheartj/ehz641.

TIBBIYOT
TA'LIMI & INNOVATSIYALARI

2026. № 10

Muharrir: Sherzod Qurbonov

Mas’ul kotib: Surmaniso Mirzaliyeva

Dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Tibbiyot ta'limi va innovasiyalari” ilmi elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @munis_sm
Tel.: 97 748 70 03





Google scholar

PubMed MEDLINE
NIH U.S. National Library of Medicine National Institutes of Health
Advancing Health Through Knowledge